



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

2026-YIL / IYUL / 7-SON,
I-QISM



ISSN

INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, iyul.
I-qism*

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukirimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

MHXS (IFRS) ASOSIDA MOLIYAVIY HISOBOT TUZISHNING KORXONA RENTABELLIGI VA TO'LOVGA QOBILIYATLILIGINI TAHLIL QILISHDAGI O'RNI.....	12
Urakova Maxsad Xakimovna	
QAYTA TIKLANMAYDIGAN RESURLARDAN SAMARALI FOYDALANISHDA MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALARNING O'RNI.....	18
Yusupova Jamila Karamatdinovna	
COMPARATIVE ANALYSIS OF DIGITAL FINANCIAL TECHNOLOGIES FOR CREDIT RISK PREDICTION AND MANAGEMENT IN COMMERCIAL BANKS BASED ON ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND BIG DATA ANALYTICS.....	21
Kholdorov Sardor Umarovich	
O'ZBEKISTONDA AGROINVESTITSIYALARNI MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	28
Yusupov Komaliddin Baxtiyor o'g'li	
O'ZBEKISTONDA NOGIRONLIGI BO'LGAN SHAXSLAR UCHUN ICHKI TURISTIK MAHSULOTLAR TAHLILI.....	33
Zoxidov Firuz Faxritdinovich	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ УПРАВЛЕНИЯ ПРЕДПРИЯТИЯМИ ПИЩЕВОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ НА ОСНОВЕ ИННОВАЦИОННОГО ПОДХОДА.....	38
Эргашбаева Нилуфар Мухаммадсайфуллаевна	
MUSTAQIL TURISTLAR OQIMINI OSHIRISHDA ILG'OR XORIJIY TAJRIBA VA UNI O'ZBEKISTON SHAROITIGA MOSLASHTIRISH IMKONIYATLARI.....	42
Muzaffarov Akmal Axmadovich	
МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТЕХНОЛОГИЙ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА И ЧАТ-БОТОВ В СИСТЕМЕ РЕГУЛИРОВАНИЯ ТРУДОВЫХ ОТНОШЕНИЙ	49
Ирматова Азиза Бахрамовна	
OROL BO'YI MINTAQASIDA YASHIL IQTISODIYOT ASOSIDA AGROTURIZMNI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI (QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI MISOLIDA)	56
Akramova Feruza	
RECENT MEDICAL TOURISM RESEARCH IN THE WEB OF SCIENCE CORE COLLECTION	68
Hao Xiaohui	
HARBIY XIZMATCHILARNI KIYIM-KECHAK BILAN TA'MINLASHDA ILG'OR XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASIDAN O'ZBEKISTONDA FOYDALANISH ISTIQBOLLARI	76
Omonov Usmonqul Raxmonqul o'g'li	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI BAHOLASH VA OSHIRISHNING ZAMONAVIY IQTISODIY MEXANIZMLARI	83
Inobatov Abror Boshlarovich	
КОММУНАЛЬНАЯ ИНФРАСТРУКТУРА И МЛАДЕНЧЕСКАЯ СМЕРТНОСТЬ: ЭМПИРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПО РЕГИОНАМ УЗБЕКИСТАНА ЗА 2012–2024 ГОДЫ.....	92
Мамбетсапаев Курбанияз Айниязович	
АНАЛИЗ ФАКТОРОВ ФОРМИРОВАНИЯ КОНКУРЕНТНОГО ПОТЕНЦИАЛА ПРЕДПРИЯТИЙ СТРОИТЕЛЬНОЙ ОТРАСЛИ	97
Ташмухамедова Карима Саматовна	
СУТЬ УПРАВЛЕНИЯ СТРАТЕГИЕЙ ПРЕДПРИЯТИЯ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ	104
Тарават Абдул Салам	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA ASOSIY KAPITALGA KIRITILGAN INVESTITSIYALAR MANBALARI RIVOJLANISHINING MINTAQAVIY XUSUSIYATLARI.....	112
Ibadullayev Dilshad Ibragimovich	



BARQAROR SHAHARSOZLIKNI TA'MINLASHDA TRANSPORT INFRATUZILMASINING EKOLOGIK VA IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASH.....	117
Permatov Ilxomjon Juraboyevich	
O'ZBEKISTONDA BARQAROR SHAHARSOZLIKNI HUQUQIY ASOSLARINI RIVOJLANTIRISH	121
Inoyatova Gulnoz Kadamovna	
BARQAROR RIVOJLANISH SHAROITIDA EKOLOGIK OMILLARNING BINOLAR YEMIRILISHIGA TA'SIRINI KOMPLEKS BAHOLASH VA ULARNI KAMAYTIRISH USULLARI (TOSHKENT SHAHRI MISOLIDA).....	125
Turabova Shodiya Anvarjon qizi	
MHXSDA TUSHUM VA MOLIVAVIY INSTRUMENTLAR BO'YICHA PUL MABLAG'LARI OQIMINI HISOBGA OLISH	132
Eshonqulov Akmal Qudratovich	
BOJXONA IMTIYOZLARINING DAVLAT BYUDJETI DAROMADLARIGA TA'SIRINI BAHOLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH.....	138
Latipov Jahongir Shavkatovich	
O'ZBEKISTONDA XUSUSIY TA'LIM TIZIMIDA KADRLAR NOMUTANOSIBLIGI TENDENSIYALARI	144
Raxmatxo'jayev Axrolxo'ja Akmal o'g'li	
EKOLOGIK TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR VA INNOVATSION USULLARNING SAMARADORLIGI.....	150
Usmanova Gulida Valiyevna	
BUXORO VILOYATIDAGI KICHIK VA O'RTA BIZNES SUBYEKTLARI TARMOQLARARO IQTISODIY SAMADORLIGI EKONOMETRIK TAHLILI	156
Nazarov Nazar G'ulom o'g'li	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KO'CHMAS MULK BOZORIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	163
Sadikova Dildora Abdulla qizi	
MAHALLALARDA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH EKOTIZIMINING FUNKSIONAL BOG'LIQLIGI.....	167
Tuxtasinov Zafarjon Odiljonovich	
СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ МЕЖДУНАРОДНЫМИ ФИНАНСОВЫМИ ОПЕРАЦИЯМИ	172
Исмоилова Жасмина Ильхом кизи	
SANOAT KLASSTERLARIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING INNOVATSION FAOLIYATGA TA'SIRI	178
Mamadaliyev Anazxon Ziyodillayevich	
XIZMATLAR SOHASIDA KICHIK BIZNES KORXONALARINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNING SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARI	183
Ulmasova Oygul Baxtiyorovna	
BIOLOGIK RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISHDA INNOVATSION BOSHQARUV USULLARI.....	188
Babadjanov Akmal Shuxratovich	
ZAMONAVIY JAMIYATDA AHOLINING EKOLOGIK MADANIYATINI YUKSALTIRISH MEXANIZMLARI.....	193
Xudoyberdiyev Norbek Komiljon o'g'li	
O'ZBEKISTON KONTEKSTI: IQLIM O'ZGARISHI, OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGI VA MOSLASHTIRISH SIYOSATLARI	198
Haydarov Ibrohimxon Abbosxon o'g'li	
TOVAR YETKAZIB BERISH ZANJIRI VA BOJXONA NAZORATINI BOSHQARISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	202
Kilichov Nazar Bafoevich	



TA'LIM XIZMATLARI VA ULARNI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI	208
Yusupova I.R.	
OROLBO'YI HUDUDLARINING IJTIMOIIQTISODIY SALOHİYATINI KOMPLEKS BAHOLASH VA USTUVOR RIVOJLANISH YO'NALISHLARI	212
Dosnazarov Kallibek Kalbayevich	
ОЦЕНКА ВЛИЯНИЯ ФИНАНСОВЫХ РЕЗУЛЬТАТОВ ПРЕДПРИЯТИЙ НА ФОРМИРОВАНИЕ ДОХОДОВ ГОСУДАРСТВЕННОГО БЮДЖЕТА	222
Айтмуратов Кутлымурат Жалгасович	
DAVLAT ISHTIROKIDAGI KORXONALAR UCHUN KORPORATIV BOSHQARUV BO'YICHA IQTISODIY HAMKORLIK VA TARAQQIYOT TASHKILOTI (IHTT)NING YETAKCHI TAMOIYILLARINI O'ZBEKISTON AMALIYOTIGA JORIY ETISH YO'NALISHLARI	227
Jumadullayeva Durdona Shuxrat qizi	
TURIZM SOHASIDA KLASTERNI SHAKLLANTIRISH ASOSIDA AHOLI BANDLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI.....	233
Abdurayimov O'ktam Abdug'ani o'g'li	
EKOLOGIYAGA OID HUQUQBIZARLIKLAR TARKIBI	240
Majidova Shaxnoza Rustam qizi	
TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKINI BOSHQARISH VA MUAMMOLI KREDITLAR MUAMMOSI: TAHLIL VA YECHIMLAR.....	244
Qurbonov Ilhom Jumaqulovich	
AGROTADBIRKORLIKDA OMILLAR SARFI ASOSIDA QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQRISH HAJMINING OSHISHIGA TA'SIRINI HUDUDIY BAHOLASH.....	248
Qurbonov Alisher Boboqulovich	
ORGANIZATIONAL AND METHODOLOGICAL PROBLEMS IN THE IMPLEMENTATION OF INTERNAL STANDARDS IN AUDIT FIRMS OF UZBEKISTAN AND THEIR IMPACT ON THE QUALITY OF AUDIT SERVICES	256
Kamola Bobonarova	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONA MENEJMENTIDA AXBOROT TEKNOLOGIYALARINING NAZARIY ASOSLARI.....	262
Zohidov Jamshid Botirxonovich	
SOLIQ QARZDORLIGINI UNDIRISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHDA XALQARO TAJIRIBA VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI.....	267
Hakimov Ulug'bek Furqat o'g'li	
NAMANGAN VILOYATIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI FAOLIYATI VA MAHALLIYLASHTIRISH JARAYONLARINING HOZIRGI HOLATI TAHLILI.....	272
Mirzabaev Xusniddin Muxamadjonovich	
MILLIY HUNARMANDCHILIK SOHASINI HUDUDIY RIVOJLANTIRISHNING INTEGRAL BOSHQARUV MODELI VA UNI BAHOLASH	279
Yaxshiliqov Sardor Rustam o'g'li	
O'ZBEKISTONDA SOLIQ SIYOSATINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI: EKONOMETRIK TAHLIL.....	288
H.S. Bobojonov	
OLIY TA'LIM TIZIMIGA XORIJIY INVESTITSİYALAR JALB QILISHNING USLUBIY ASOSLARI.....	294
Mamanazarov A.A.	
OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARIDA ISHLAB CHIQRISH SALOHİYATINI BOSHQARISH VA ISHLAB CHIQRISH XAVFSIZLIGI TA'MINLASHNING METODOLOGIK JIHLATLARI.....	299
Gulmatov Sunnatillo Nurillayevich	
BIOLOGIK AKTIVLAR SINTETIK VA ANALITIK HISOBINI TASHKIL ETISHDA ISHCHI HISOBVARAQLAR TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	308
Axmetova Salima Seytovna	



HUDUD IQTISODIYOTIGA “YASHIL INVESTITSİYALAR”NI JALB QILISH MEXANIZMLARINING USLUBIY JIHATLARI.....	313
To‘xtayev Maqsud Mansurovich	
TURIZM SOXASIDA XIZMATLAR SIFATIGA TA’SIR ETUVCHI ASOSIY OMILLAR (SAMARQAND VILOYATI MISOLIDA).....	321
Suyunov R.G’.	
SOLIQ MA’MURCHILIGI METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARINING JORIY ETISH ISTIQBOLLARI	326
Turdaliyev Eldor Sho‘xratjon o‘g‘li	
AGROKLASTERLAR FAOLIYATINI RAQAMLI BOSHQARUV MEXANIZMLARI ASOSIDA SHAKLLANTIRISH VA TAKOMILLASHTIRISH.....	334
Berdiyev Abdumalik Hakimovich	
AHOLI DEMOGRAFIK JARAYONLARINI STATISTIK TADQIQ ETISHDA KUZATUVLARNING O‘RNI VA O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	340
Siroj Zarina Rustambekovna	
MECHANISMS FOR INCREASING THE EFFECTIVENESS OF USING ISLAMIC FINANCE INSTRUMENTS IN SMALL BUSINESS DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN.....	347
Toshxo‘jayev Abduqodirxon Abdulmanurxon ugli	
KORPORATIV BOSHQARUVNING IQTISODIY MAZMUNI VA QURILISH KORXONALARI FAOLIYATIDAGI INSTITUTSIONAL AHAMIYATI	354
G‘iyosov Ilxom Karimovich	
FORECASTING OF AGRICULTURAL PRODUCTION INDICATORS IN SURKHANDARYA REGION USING THE ARIMA MODEL.....	361
Abdurayimov Kamoliddin Khurram oglu	
BARQAROR HOSILDORLIKNI TA’MINLASHNING IQTISODIY YONDASHUVLARI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	369
Turayeva Gulizahro	
INNOVATSION EKOTIZIMDA FAN-TA’LIM-ISHLAB CHIQUARISH INTEGRATSIYASINING IQTISODIY JIHATLARI.....	374
Uzaydullayev Sherzod Shukurullayevich	
INSON CAPITALIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING INTEGRAL INDEKSINI SHAKLLANTIRISH VA UNING HUDUDIY IQTISODIY O‘SISHNI BAHOLASHDAGI AHAMIYATI.....	378
Yusubboyeva Dinora Qudrat qizi	
OHAK TOSH QAZIB OLISH JARAYONIDA ATROF MUHITDAGI ZARARI VA OLDINI OLISH.....	386
Kaxorov Ulug‘bek	
DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK LOYIHALARIDA MOLIVAVIY RISKLARNI BAHOLASH VA BOSHQARISH: O‘ZBEKISTON TAJRIBASI VA XALQARO YONDASHUVLAR (2019-2025 YILLAR)	389
Abdukarimov Akbar G‘anisherovich	
KORXONALAR FAOLIYATINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNI IMITATSION MODELLASHTIRISH.....	393
Raximov Azizbek Zokirovich	
OROLBO‘YI MINTAQASIDA YOSHLAR TADBIRKORLIGI VA TA’LIM XIZMATLARI SIFATINING TAHLILI.....	400
Raxmanov Raxmanbergan Abdullaevich	



OROLBO'YI MINTAQASIDA YOSHLAR TADBIRKORLIGI VA TA'LIM XIZMATLARI SIFATINING TAHLILI

Raxmanov Raxmanbergan Abdullaevich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil tadqiqotchisi.

E-mail: r.raxmanov@tsue.uz

Annotatsiya. Mazkur maqolada Orolbo'yi mintaqasida yoshlar tadbirkorligi va ta'lim xizmatlari sifatining 2020–2025-yillardagi holati tahlil qilinadi. Statistik ma'lumotlar asosida ta'lim qamrovi oshganiga qaramay, yoshlar ishsizligi va NEET ulushi yuqoriligicha qolayotgani aniqlandi. AHP usuli orqali omillar vaznlanib, muallifning integratsiya koeffitsiyenti va ekologik inqiroz indeksi hisoblandi. Ekonometrik tahlil ($n = 433$) ta'lim sifati va moliyaviy qo'llab-quvvatlashning tadbirkorlik moyilligiga ishonchli ta'sirini isbotladi.

Kalit so'zlar: yoshlar tadbirkorligi, ta'lim xizmatlari sifati, Orolbo'yi mintaqasi, AHP usuli, integratsiya koeffitsiyenti.

Аннотация. В статье анализируется состояние молодежного предпринимательства и качества образовательных услуг в Приаральском регионе за 2020–2025 годы. На основе статистических данных установлено, что, несмотря на рост охвата образованием, уровень молодежной безработицы и доля молодежи категории NEET остаются высокими. С использованием метода АHP выполнено взвешивание факторов, а также рассчитаны авторский коэффициент интеграции и индекс экологического кризиса. Эконометрический анализ ($n = 433$) подтвердил статистически значимое влияние качества образования и финансовой поддержки на предпринимательскую активность молодежи.

Ключевые слова: молодежное предпринимательство, качество образовательных услуг, Приаральский регион, метод АHP, коэффициент интеграции.

Abstract. This article analyzes the state of youth entrepreneurship and the quality of education services in the Aral Sea region during 2020–2025. Based on statistical data, it was found that despite the expansion of educational coverage, youth unemployment and the share of NEET youth remain high. Using the Analytic Hierarchy Process (AHP), the study weighted the influencing factors and calculated the author's integration coefficient and ecological crisis index. Econometric analysis ($n = 433$) confirmed the statistically significant impact of education service quality and financial support on youth entrepreneurial propensity.

Keywords: youth entrepreneurship, education service quality, Aral Sea region, Analytic Hierarchy Process (AHP), integration coefficient.

KIRISH

Orolbo'yi mintaqasi — Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyati — ekologik inqiroz, iqtisodiy rivojlanishning nisbiy qo'loqligi va yoshlar bandligining past darajasi kabi murakkab muammolarga duch kelayotgan hudud hisoblanadi. Shu bilan birga, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi mintaqani ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududi deb e'lon qilgan bo'lib [1], bu uning rivojlanishiga o'ziga xos — muammoni imkoniyatga aylantirish — istiqbolini ochadi. Aynan shu ziddiyatli holat mintaqada yoshlar tadbirkorligi va ta'lim xizmatlari sifati o'rtasidagi bog'liqlikni real statistik ma'lumotlar asosida chuqur tahlil qilishni taqozo etadi.

So'nggi yillarda mintaqada ta'lim tizimi, ayniqsa oliy ta'lim, jadal kengaydi: rasmiy statistika ma'lumotlariga ko'ra, talabalar soni va oliy ta'lim qamrovi ikki baravarga yaqin o'sdi [2]. Biroq bu salohiyat yoshlar bandligi va tadbirkorlik faolligiga to'liq aylanmayapti — yoshlar ishsizligi umumiy ko'rsatkichdan deyarli ikki baravar yuqori bo'lib qolmoqda, NEET toifasidagi yoshlar ulushi esa yuqori darajada saqlanmoqda [2]. Bu nomutanosiblik ta'lim va tadbirkorlik o'rtasidagi bog'liqlikning avtomatik emasligini, balki maxsus tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi talab qilishini ko'rsatadi [3].

Mavjud tadqiqotlarda ta'lim sifati va yoshlar tadbirkorligi o'rtasidagi umumiy bog'liqlik yoritilgan bo'lsa-da [4, 5], bu bog'liqlikning aynan qaysi omillar orqali va qanday kuch bilan namoyon bo'lishi, shuningdek, ekologik inqiroz sharoitidagi mintaq uchun bu ko'rsatkichlarni miqdoriy o'lchash masalasi yetarli darajada



tadqiq etilmagan. Mazkur bo'shliqni to'ldirish maqsadida ushbu maqolada Orolbo'yi mintaqasi misolida yoshlar tadbirkorligi va ta'lim xizmatlari sifatining joriy holati tavsifiy-statistik, omilli (AHP) va ekonometrik tahlil usullari orqali kompleks o'rganiladi.

Shu sababli maqolaning maqsadi — Orolbo'yi mintaqasida yoshlar tadbirkorligi va ta'lim xizmatlari sifatining 2020–2025-yillardagi holatini statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilish, ularga ta'sir qiluvchi omillarni miqdoriy baholash hamda ta'lim sifati bilan tadbirkorlik faolligi o'rtasidagi bog'liqlikni ekonometrik jihatdan isbotlashdan iboratdir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Orolbo'yi mintaqasining ekologik-iqtisodiy oqibatlar T. A. Alimov, A. R. Abduvaliev va B. Qodirov tomonidan tadqiq etilgan bo'lib [6, 7], ular asosan qishloq xo'jaligi va aholi salomatligi nuqtai nazaridan yoritilgan, ekologik omilning yoshlar tadbirkorligiga ta'siri esa alohida o'lchanmagan. Yoshlar bandligi masalasi Q. X. Abdurahmonov [8] va A. Nizametdinov [9] ishlarida o'rganilgan. Omillarni baholashda T. Saatining AHP usuli [10] hamda OECD kompozit ko'rsatkichlar metodologiyasi [11] qo'llaniladi, biroq bu metodikalar mintaqaviy kesimda qurilmagan. GEM–UNDP tadqiqotida ta'lim va tadbirkorlik o'rtasidagi bog'liqlik isbotlangan [12], ammo ekologik omil hisobga olinmagan. Shunday qilib, ta'lim sifati, yoshlar tadbirkorligi va ekologik inqiroz o'rtasidagi uch tomonlama bog'liqlikni mintaqaviy kesimda kompleks tekshirish masalasi ochiq qolmoqda — mazkur bo'shliqni to'ldirish ushbu maqolaning vazifasidir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi Orolbo'yi mintaqasida yoshlar tadbirkorligi va ta'lim xizmatlari sifatini kompleks baholashga qaratilgan bo'lib, uch bosqichda quriladi. Birinchi bosqichda 2020–2025-yillardagi rasmiy statistik ma'lumotlar (qrstat.uz, xorazmstat.uz, stat.uz) asosida dinamik va qiyosiy tahlil, shuningdek, bazis indeksleri usuli (2020-yil = 100) qo'llanilib, mintaqaning demografik-iqtisodiy holati, ta'lim tizimi va mehnat bozori ko'rsatkichlari tavsiflanadi.

Ikkinchi bosqichda yoshlar tadbirkorligiga ta'sir qiluvchi omillar besh guruhga tasniflanib, ularning nisbiy ahamiyati Analitik ierarxiya jarayoni (AHP) usuli orqali vaznlanadi; natijalarning izchilligi izchillik nisbati (CR) orqali tekshiriladi. Shu bilan birga, mintaqaning o'ziga xosligini aks ettiruvchi ikkita muallif konstruksiyasi — tadbirkorlik-ta'lim integratsiya koeffitsiyenti va ekologik inqiroz indeksi — indeks usuli asosida ishlab chiqiladi va hisoblanadi.

Uchinchi, yakuniy bosqichda tadqiqotning markaziy gipotezasi ikki darajada tekshiriladi: makro daraja — rasmiy statistikaga asoslangan tavsifiy-korrelyatsion tahlil (Pearson korrelyatsiyasi) va mikro daraja — muallif tomonidan o'tkazilgan keng qamrovli ijtimoiy so'rovnoma ($n = 433$) asosidagi ko'p faktorli regressiya tahlili. Bunday ikki darajali (triangulyatsiya) yondashuv makro-statistik tendensiyani mikro darajadagi mustaqil empirik dalil bilan birga ko'rib chiqish imkonini beradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

2020–2025-yillar davomida Orolbo'yi mintaqasi yuqori demografik salohiyatga ega bo'lib qoldi: mintaq aholisi 4 062,1 ming kishiga yetib, yoshlar (14–30 yosh) ulushi 26,9 foizni tashkil etdi. Shu davrda yalpi hududiy mahsulot Qoraqalpog'istonda 2,6 baravar, Xorazmda 2,9 baravar o'sdi, kambag'allik darajasi esa uch baravarga yaqin pasaydi. Ta'lim tizimi, ayniqsa oliy ta'lim, jadal kengaydi: talabalar soni Qoraqalpog'istonda 107,6 foizga, Xorazmda 189,0 foizga oshdi.

Biroq ushbu ijobiy dinamika yoshlar bandligi va tadbirkorlik faolligiga to'liq aylanmadi: yoshlar ishsizligi umumiy ko'rsatkichdan deyarli ikki baravar yuqori (10–11%) bo'lib qoldi, NEET ulushi esa 13–15 foiz darajasida saqlanib qoldi. Bazis indeksleri (2020 = 100) tahlili shuni ko'rsatdiki, oliy ta'lim qamrovi 200 indeksigacha o'sgan bo'lsa, Qoraqalpog'istonda yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni 87 indeksigacha (13,1 foizga) qisqardi — bu ta'lim va tadbirkorlik o'rtasidagi tizimli uzilishni miqdoriy jihatdan tasdiqlaydi (1-jadval).

1-jadval.


Orolbo'yi mintaqasining asosiy ko'rsatkichlari va o'sish indeksleri (2020–2025)

Ko'rsatkich	2020	2025	Indeks (2020=100)
Oliy ta'lim talabalari (QQ), ming	35,5	73,7	208
Oliy ta'lim qamrovi (QQ), %	6,7	13,4	200
Yangi tashkil etilgan subyektlar (QQ), ta	4 568	3 969	87
Yoshlar ishsizligi (QQ), %	16,1	10,5	65
NEET ulushi (QQ), %	23,4	14,8	63

Manba: qrstat.uz, xorazmstat.uz, stat.uz ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.



Ushbu nomutanosiblikning sabablarini aniqlash uchun yoshlar tadbirkorligiga ta'sir qiluvchi omillar besh guruhga tasniflanib, Analitik ierarxiya jarayoni (AHP) usuli orqali vaznlandi (izchillik nisbati $CR = 0,010$, maqbul chegaradan past). Natijalar shuni ko'rsatdiki, institutsional integratsiya (33,3%) va ta'lim sifati (29,0%) omillari birgalikda umumiy vaznning 62,3 foizini tashkil etib, eng muhim omillar sifatida aniqlandi (1-rasm).



1-rasm. Yoshlar tadbirkorligiga ta'sir qiluvchi omillarning AHP usulidagi vazni (%)

Yuqoridagi diagramma AHP usulida hisoblangan besh omil guruhining nisbiy vaznini ko'rsatadi.

Institutsional integratsiya omilini miqdoriy baholash uchun muallif tomonidan tadbirkorlik-ta'lim integratsiya koeffitsiyenti (I_i) ishlab chiqildi. U mintaqada 2023–2024-yillarda atigi 0,18–0,28 oralig'ida — etalon darajasining to'rttdan uchdan biriga teng — bo'lib chiqdi. Bu ta'lim muassasalari va tadbirkorlik infratuzilmasi o'rtasidagi integratsiya darajasi past ekanligini isbotlaydi.

Ekonometrik tahlil ikki darajada o'tkazildi: makro daraja (rasmiy statistika, $n = 9$) va mikro daraja (muallif so'rovnoma, $n = 433$). Mikro darajadagi ko'p faktorli regressiya modeli statistik jihatdan ishonchli natija berdi ($R^2 = 0,179$; $F = 18,59$; $p < 0,001$): tadbirkorlikka tayyorlovchi ta'lim qamrovi ($\beta = 0,406$; $p = 0,009$), moliyaviy qo'llab-quvvatlash ($\beta = 0,208$; $p < 0,001$) va ekologik bosim ($\beta = 0,123$; $p = 0,001$) yoshlar tadbirkorlik moyilligiga ishonchli ta'sir ko'rsatdi. Alohida e'tiborga loyiq natija — ekologik bosim bilan tadbirkorlik moyilligi o'rtasidagi musbat bog'liqlik ($r = +0,269$), bu ekologik inqiroz sharoitida ham yoshlar tadbirkorlik faolligi saqlanishini, ayniqsa yashil tadbirkorlik imkoniyati idrok etilganda, ko'rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatdiki, Orolbo'yi mintaqasi yuqori demografik salohiyatga va jadal kengaygan ta'lim tizimiga ega bo'lsa-da, bu salohiyat yoshlar bandligi va tadbirkorlik faolligiga to'liq aylanmayapti — bazis indeksleri tahlili oliy ta'lim qamrovi va yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari o'rtasidagi qarama-qarshi dinamikani (indeks 200 va 87) miqdoriy jihatdan tasdiqladi. AHP tahlili bu nomutanosiblikning sababini aniq ko'rsatdi: institutsional integratsiya va ta'lim sifati omillari eng yuqori vaznga ega bo'lsa-da (jami 62,3%), muallif ishlab chiqqan integratsiya koeffitsiyenti (I_i) atigi 0,18–0,28 darajasida qolmoqda. Ekonometrik tahlil (makro va mikro darajada) ta'lim sifati, moliyaviy qo'llab-quvvatlash va ekologik omilning tadbirkorlik moyilligiga statistik jihatdan ishonchli ta'sirini isbotladi.

Ushbu xulosalar asosida quyidagi takliflar shakllantirildi: birinchidan, ta'lim muassasalari va tadbirkorlik infratuzilmasi o'rtasidagi integratsiyani institutsional jihatdan mustahkamlash — bu eng yuqori vaznli (33,3%), ammo hozircha eng past darajadagi omil; ikkinchidan, amaliy ta'lim ulushini oshirish orqali ta'lim kengayishining faqat akademik emas, balki tadbirkorlikka yo'naltirilgan bo'lishini ta'minlash; uchinchidan, ekologik inqiroz omilini to'siq emas, balki yashil tadbirkorlik uchun imkoniyat sifatida ko'rib chiqib, tegishli ta'lim va moliyaviy dasturlarni shu yo'nalishga moslashtirish; to'rtinchidan, integratsiya koeffitsiyenti (I_i) va shunga o'xshash ko'rsatkichlarni doimiy monitoring qilish tizimini joriy etish, chunki bu mintaqada ta'lim va tadbirkorlik o'rtasidagi bog'liqlikni vaqt bo'yicha kuzatish imkonini beradi.



Olingan natijalar Orolbo'yi mintaqasida yoshlar tadbirkorligini rivojlantirishga qaratilgan maxsus tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlar ishlab chiqish uchun empirik asos bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Birlashgan Millatlar Tashkiloti. **Orolbo'yi mintaqasini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududi deb e'lon qilish to'g'risidagi rezolyutsiya** / BMT Bosh Assambleyasi. – Nyu-York: BMT, 2021.
2. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. **SDMX ochiq ma'lumotlar portali** [Elektron resurs]. – URL: <https://stat.uz> (murojaat qilingan sana: 04.07.2026); Qoraqalpog'iston Respublikasi Statistika boshqarmasi [Elektron resurs]. – URL: <https://qrstat.uz>; Xorazm viloyati Statistika boshqarmasi [Elektron resurs]. – URL: <https://xorazmstat.uz>.
3. Isenberg, D. J. **How to Start an Entrepreneurial Revolution** // *Harvard Business Review*. – 2010. – Vol. 88, No. 6. – P. 40–50.
4. Schultz, T. W. **Investment in Human Capital** // *American Economic Review*. – 1961. – Vol. 51, No. 1. – P. 1–17.
5. Becker, G. S. **Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis, with Special Reference to Education**. – New York: Columbia University Press, 1964. – 187 p.
6. Alimov, T. A., & Abduvaliev, A. R. **Orol dengizi ekologik inqirozi va uning iqtisodiy oqibatlari**. – Toshkent, 2020. – 96 b.
7. Qodirov, B. **Orol dengizi mintaqasidagi ekologik muammolar va ularning yechimlari** // *Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish jurnali*. Maxsus son. – 2018. – B. 18–24.
8. Abdurahmonov, Q. X. **Mehnat iqtisodiyoti: darslik**. – Toshkent: Mehnat, 2009. – 238 b.
9. Nizametdinov, A., Kerim, K., & Xudoyarov, R. **Yoshlarni tadbirkorlik orqali bandligini ta'minlash mexanizmlarini takomillashtirish** // *International Scientific and Practical Conference*. – 2024. – Vol. 1, No. 3. – DOI: 10.5281/zenodo.14216039.
10. Saaty, T. L. **The Analytic Hierarchy Process**. – New York: McGraw-Hill, 1980. – 287 p.
11. OECD; Joint Research Centre (JRC). **Handbook on Constructing Composite Indicators: Methodology and User Guide**. – Paris: OECD Publishing, 2008. – 158 p.
12. United Nations Development Programme (UNDP); Global Entrepreneurship Monitor (GEM). **Youth Entrepreneurship in Asia and the Pacific**. – New York: UNDP, 2019.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 7/1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>